

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2019

2-son

(mart-aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvoohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4 Mutolaa madaniyati – mangu ma'naviyat masalasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- A. Askarov 7 Pedagogik faoliyatga talabalarni sifati tayyorlash tizimini takomillashtirishning ayrim jihatlari
- S. Kambarova 12 Adabiy ta'limda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari
- K. Matnazarova 19 Mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish – ijodiy faollikni oshirish omili
- D. Ismailova 23 Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini o'qitishda darsdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati
- F. Mamatisaqova 27 Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsdan tashqari mashg'ulotlarning o'rni va ahamiyati
- R. Safarova,
S. Maxmudov 31 Qo'shiq – inson ma'naviy kamolotining muhim omili, "ommaviy madaniyat" ma'rifat kushandasidir
- M. Abdurahimova 39 Boshlang'ich ta'limda mavjud muammolar hamda ularni yechish metodlari
- B. Ma'murov 43 Ta'lim – tarbiya jarayoniga akmeologik yondashuvning ilmiy asoslari



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- O'. Tolipov 48 Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi
- X. Qdirbayeva 52 O'quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishning nazariy – metodologik asoslari
- A. Sarbetova 58 Oliy ta'lim muassasalarida elektr ta'minoti fanini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim texnologiyalari



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- G. Ergasheva 62 Pedagogik texnologiya – ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyati, o'quv jarayonining usul va vositalar tizimidir
- T. Kaziyeva 66 Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari
- G. Nishanova 71 Yoshlarga konstitutsiyani o'rgatish asosida ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish

Saodat KAMBAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti o‘qituvchisi

ADABIY TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish va bu borada amerikalik psixolog Govard Gardnerning o‘quvchilarda mavjud intellekt tiplarini rivojlantirishga doir nazariyasidan foydalanishning samarali jihatlari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar. Mutolaa, ehtiyoj, qiziqish, idrok, verbal-lingvistik, mantiqiy-matematik, vizual-fazoviy, musiqiy-ritmik, shaxslararo, ichki shaxsiy hamda naturalist (tabiatshunos) intellekti.

В статье изложены наиболее эффективные аспекты использования теории самостоятельного обучения в литературном обучении учеников и использование идей американского психолога Говарда Гарднера для развития интеллектуального контента, доступного для студентов.

Ключевые слова. Чтение, потребность, интерес, восприятие, вербально-лингвистическая, логико-математическая, визуальное пространство, музыкально-ритмический, межличностный, индивидуальный и натуралистический интеллект.

The article outlines the most effective aspects of using the theory of independent learning in pupils' literary and the use of the American psychologist Howard Gardner's ideas for the development of intellectual content available to students in Education.

Key words. Read, requirement, interest, perception, verbal-linguistic, logical-mathematics, visual-space, music-rhythmic, interpersonal, individual and naturalist intelligence.

Adabiyot o‘qitishning hayot bilan chambarchas bog‘liqligi, shaxs ma’naviyatiga daxldorlik, adabiy ta’limni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish g‘oyatda murakkab jarayon bo‘lib, uni birgina adabiyot darslari vositasida amalga oshirish mushkuldir. Zero, adabiyot fanini o‘qitish o‘quvchilarni adabiyotshunos qilib tarbiyalash vazifasiga emas, balki o‘z taqdirini yurt ravnaqi va xalq farovonligi bilan chambarchas bog‘laydigan yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgandir.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’lim-tarbiya sohasidagi yutuq va muammolarni tahlil qilar ekan, yoshlarning kitobxonlik darajasi pasayib, ko‘p vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotganiga alohida e’tibor qaratgan holda “Bugungi kunda ax-

borot tarqatish, axborot almashishning tezligi va mukammalligi bo'yicha internetning o'rnini bosadigan boshqa vosita yo'qligini albatta yaxshi bilaman. Ammo farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat manbai bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki biz uchun yot bo'lgan g'oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirayotgan zararli axborotlar asosida shakllanishiga men mutlaqo qarshiman. Eng muhimi, farzandlarimizda yoshlik chog'idan boshlab kitobga mehr qo'yish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri javob topish ko'nikmasini shakllantirishimiz, buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor"¹ degan fikrlari masalaning g'oyat dolzarbligini ko'rsatadi.

Shunday ekan, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni so'z san'atining sehri olamiga yetaklab kirish, ma'naviy kamolot tarbiyasi adabiyot o'qituvchisining g'oyat muhim va zaruriy vazifalaridan hisoblanadi. Adabiyotdan dars soatlarining cheklanganligi va dastur mavzularining siqiligi o'quvchilarni qiziqtiradigan barcha savollarga ham javob topish imkonini beravermaydi. Vaziyatdan chiqishning birdan bir yo'li mustaqil mutolaani qat'iy reja asosida amalga oshirishdir.

Mutolaa – ota-onalar va o'qituvchilarning savodli hamkorligi ta'sirida bolaning so'zlarni ko'rish va tanish, ma'nosini tushunish, mazmun-mohiyatini anglash hamda og'zaki faoliyat yuritish hodisasidir. Mutolaa, shuningdek, shaxsning o'zligini tanishga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, buning natijasida unda yangi sifat-xususiyatlar vujudga keladi. Inson hayoti davomida o'ziga singdirgan mana shu mehnat elementlari orqali shaxsiy tarbiyaning takrorlanmas shaklini yaratadi va bular mutolaani madaniyatning boshqa faoliyat turlaridan ajratib turadi. Natijada, mutolaa subyekt faoliyatini maqsadli harakatlar sari yo'naltiruvchi evalyutsion jarayondir.

Sotsiologiya fanlari doktori A.Umarov mutolaa madaniyatini "ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlar"² (atribut – lotincha "attributum" – qo'shib berilgan, ta'minlangan, qo'shimcha qilingan) deb biladi.

Mutolaa madaniyatini shakllantirish zarurati o'quvchilarning adabiyotdan qandaydir yangilikni bilib olishi bilangina bog'liq emas. Mustaqil mutolaa jarayonlari milliy o'zlikni, hayotning tub mohiyatini anglatish, fuqarolik burchi va axloqiy nuqtai nazarini mustahkamlash kabi mushtarak maqsadlar yo'lida takomillashib, ijtimoiy-axloqiy va estetik ideallarni o'zida aks ettiradi. Bolada mutolaa madaniyati elementlari dastlab oilaviy an'analar, ota-ona ibrati asosida asta-sekinlik bilan shakllanadi, keyinchalik ta'lim-tarbiya, mahalla, jamoatchilik kabi atrof-muhit ta'sirida faollashib, ehtiyojga aylana boradi. Psixologiyada ehtiyoj tushunchasiga subyekt va uning faoliyati o'rtasidagi aloqadorlikni o'zida mujassam etuvchi kategoriya sifatida qaraladi.

Mutolaa ehtiyoji shaxsda ixtiyoriy, erkin va ongli o'qib-o'rganish, estetik zavqlanish, huzurlanish va ilhomlanishga bo'lgan moyilliklar negizida individual qiyofa kasb etadi. Binobarin, professor S.Matjonov ta'kidlagandek, "O'quvchi o'zi mutolaa qiladigan kitobi haqida qancha ko'p ma'lumotga ega bo'lsa, uni shu qadar chuqur o'zlashtiradi, undagi nafosatni qalbdan his etadi. Buning uchun o'quvchining o'zi kitob orqali yangi

¹ Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston NMIU, 2017. – 36-b.

² A.A. Umarov Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. Sotsiologiya fan. dok. diss... –T.: 2005. 36-b.

bir olam bilan tanishishga tayyor bo'lishi, ya'ni ichdan ehtiyoj sezishi, majburiyat va mas'uliyat his qilishi kerak”³.

O'qituvchi bu borada mutolaa uchun adabiyotlarni tanlab tavsiya qilishi, o'z vaqtida asarlar ro'yxatini yangilashi va mazmunini kengaytirib borishi, bunda har bir o'quvchining yosh va individual xususiyati hamda qiziqishini hisobga olishi zarur. Negaki, qiziqish o'rganilayotgan asar mohiyatini chuqurroq idrok qilishga yordam beradi.

Qiziqish va idrok o'quvchining intellektual salohiyati bilan chambarchas bog'liq. Psixologik nuqtai nazardan yondashganda, qiziqish “shaxsning muayyan voqelikdagi, muayyan vaziyatdagi turli narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lishida, insonning o'ziga xos qaror qabul qilishida, o'zini o'zi nazorat eta bilishida, maqsadga intilishida, yuzaga kelgan obyektiv va subyektiv to'siqlarni yengishida ifodalanadi”⁴. Ilmiy manbalarda “intellekt” (lotincha “intellectus”) so'zi aql, idrok, tasavvur kabi ma'nolarni anglatib⁵, kishining anglash, tushunish, fahmlash, bir so'z bilan aytganda, aqliy rivojlanganlik darajasini belgilashi qayd etiladi. Bizningcha, intellekt shaxsning muayyan darajada mustahkam, barqaror aqliy, ruhiy qobiliyatlari majmuasidir.

O'quvchilarning intellektual salohiyatni rivojlantirishda mutolaa asoslarini o'ziga singdirish va o'zlashtirish qatorida bilimlarini qiyoslash, tahlil qilish, sintezlash, abstraktlash, umumlashtirish va ulardan amalda oqilona foydalanish tajribasini o'rtirish bilan bog'liq malakalarga ega bo'lishi talab etiladi. Idrok faoliyati insonning egallagan bilimi, o'rtirgan tajribalari hamda murakkab analitik-sintetik harakatlar tizimi zamirida shakllanadi. Narsa va hodisalarni umumlashgan tarzda aks ettirish mazkur tushunchaga xos muhim xususiyatlardan biri bo'lib, bu turli vaziyat, sharoit va jabhalarda faol va bevosita aks ettirish imkoniyati mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Badiiy asarni idrok etish matn mazmunini tushunish va anglash jarayoni bilan uzviylikda kechadi. Idrok qilish asosida estetik his-tuyg'ular, badiiy tafakkur shakllanadi, tasavvurlar hosil bo'ladi. Natijada o'quvchilar tafakkuri voqelikka yaqinlashadi. Metodist olim R.Niyozmetova adabiy materiallarni o'rganishning pedagogik-psixologik asoslarini tadqiq qilar ekan, kitobxonning obrazli aniqlashtirish va umumlashtirish kabi analitik-sintetik faoliyati nazarda tutilishiga alohida urg'u beradi⁶. O'quvchi o'rganilayotgan asar mohiyatini qanchalik tez, to'la va aniq idrok qilsa, aqlan va ruhan boyishiga zamin yaratiladi. Zero, idrok qilish yo'li bilan hosil qilingan bilim, badiiy obraz yoki obrazli umumlashmalar xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishiga muvaffaq bo'linadi. O'quvchilar o'zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o'quv va mexnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilat-lari va xislatlarini hosil qilishga harakat qiladilar; o'z-o'zini tarbiyalash muammolarini, yaxlit ma'naviy-ruxiy qiyofani shakllantirishga intiladilar. O'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'quv muassasa jamoat tashkilotlari, pedagoglar jamoasining tarbiyaviy ta'siri doirasida bo'lmog'i shart. Toki o'z-o'zini tarbiyalashni takomillashtirish jamoada munosib o'rin egallashga, ijtimoiy burchni anglash, foydali mexnatga jalb etish ishiga xizmat qilsin. O'z-o'zini tarbiyalashni to'g'ri izga solib yuborish uchun uyg'un

³ S. Matchanov Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dokt. diss... –T.: 1998. – 249-b.

⁴ E.G. G'oziyev Psixologiya. –T.: O'qituvchi, 2008. 94-b.

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-jild. –T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 216-b.

⁶ R.X. Niyozmetova Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganishning nazariy va metodik asoslari (rus guruhlarini misolida). Ped. fan. dokt. diss... –T.: 2007. 43-b.

birlikni tashkil etgan tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasi tarzida tasir o'tkazish jamoa majburiyati, o'zaro yordam va nazorat qilish, o'zaro baxolash va tanqid qilish kabilar maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil mutolaa "murakkab ijtimoiy-ruhiy jarayon bo'lib, uning mohiyatini anglash tizimiy tahlil va sintezni uyg'un tarzda amalga oshirish hamda mutolaa hodisasining tarkibiy tushunchalarini o'rganishni taqozo etadi"⁷. Demak, barkamol kitobxon tarbiyasida o'quvchining ichki regulatsiyasi, bilish jarayonlarini hisobga olish, milliy va zamonaviy pedagogikaning maqsad, shakl, vazifalari, shuningdek, oila, mahalla hamda o'quv muassasalari hamkorligini yagona maqsad yo'lida birlashtirish yaxlit tizim sanaladi. Bu borada ajdodlarimizning ma'rifatparvarlik g'oyalari, adabiyot o'qitish mazmunida belgilangan mezonlarga asoslanish, qolaversa, chet davlatlarning ilg'or tajribalarini milliy metodika taraqqiyotiga hamohang yo'naltirish har bir o'quvchida mavjud intellekt turini safarbar qilish, ta'lim texnologiyalari ularning individual rivojlanishiga mos holda tuzilishi ustuvor masaladir.

Mutolaa madaniyatini shakllantirishda zamonaviy pedagogika va psixologiya o'quvchi rivojlanish darajasiga mos ish turlarini taqozo etadiki, faoliyatimizda Xorazmiyning sezgi orqali bilish, Forobiyning bilish qobiliyati, Beruniyning qiyoslash, Ibn Sino-ni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya yaxlitligi, Navoiyning qobiliyatlar darajasida bilim berish haqidagi ta'limotlari qatori xorij tajribalarining zarur jihatlariga tayanish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Bu borada amerikalik pedagog J.Dyuning konstruktivizm, shvetsariyalik psixolog J.Piajening bola intellektining rivojlanishi, rossiyalik psixolog L.S.Vigotskiyning eng yaqin rivojlanish sohasi, amerikalik olimlar G.Gardnerning intellekt turfaligi, B.Blumning o'quv maqsadlari taksonomiyasi (taksonomiya – yunoncha "taxis" – tartib bilan joylashish, "nomos" – qonun) kabi nazariyalar tub mohiyatidagi har bir o'quvchining motiv va intellekti doirasida ish ko'rish ijobiy samara berishi haqidagi qarashlari ahamiyatlidir. Xususan, psixologiyada turfa zakovatlar nomi ostida ma'lum Gardner nazariyasi bugungi kunda shaxsning turli darajada ifodalangan intellektga egaligi haqidagi ta'limot sanaladi. Nazariya zamirida dunyoni anglash va bilish verbal-lingvistik, mantiqiy-matematik, vizual-fazoviy, motor-harakatli, musiqiy-ritmik, shaxslararo, ichki shaxsiy hamda naturalist (tabiatshunos) intellekti kabi sakkiz xil zakovat asosiga qurilishi mujassam.

Professor J.Yo'ldoshevning fikricha, ba'zi bolalar o'zida ustun intellekt tipi orqali tengdoshlariga nisbatan yengilroq o'qib-o'rganishi mumkin. O'z vaqtida aniqlangan iqtidor esa bolaning kelgusidagi yutuqlari omilidir⁸.

Adabiy ta'limda o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish ularda mavjud bilish jarayonlarini yuzaga chiqarishi borasida filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos Z.Mirzayeva Gardner nazariyasida akslangan turli darajadagi intellekt tipiga e'tibor qaratib ish ko'rishni ma'qul ko'radi⁹. Agar masalaga chuqurroq yondashilsa, olimaning intellekt ko'pqirraliligiga asoslanish haqidagi qarashlarida yangicha yondashuvlar bilan bir qatorda metodikadagi an'anaviy kuzatish, ijodiy, tadqiqot yoki

⁷ A.O. Umarov Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. [Monografiya] Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi; A.Qodiriy nom. Toshkent Davlat madaniyat ins-ti. –T.:Fan, 2004. 15-b.

⁸ J.G'. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. –T.: Fan va texnologiya, 2008. 80-b.

⁹ Z. Mirzayeva Adabiyot fanlarini o'qitishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish. Gardnerning "Turfa zakovatlar" nazariyasi. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: ToshDO'TAU – 2018. 11-14-b.

evristik metodlar tarkibidagi bir qator usullarni takomillashtirish borasidagi tavsiyalari oydinlashadi. Bunda faqat topshiriqlar tizimi muayyan intellekt tipini shakllantirishga mos holda guruhlashtirilgani, aniq nom ostida berilgani va o'quvchida mavjud qobiliyatlarni ko'zda tutib oldindan rejalashtirishi nuqtai nazaridan farqlanadi.

Nazarimizda Gardner nazariyasidagi ayrim usullarni qo'llash o'zida fanning ma'lum sohalariga qiziquvchan, qaysidir yo'nalish bilan individual shug'ullanuvchi yoki muayyan sifati yaqqol namoyon o'quvchilar faoliyatini qamrab olishi nuqtai nazaridan ta'sirchandir. Biroq mavjud, lekin yashirin intellekt turini jalb etishga, fikrlash va kuzatish asosida o'zlashtirishga, o'quvchining o'zini o'zi ijobiy baholashiga ta'sir ko'rsatadigan mazmun va shakl uyg'unligini o'z o'rnida hamda subyekt imkoniyatlari darajasida qo'llash maqsadga muvofiq.

Adabiy ta'lim jarayoniga Gardner nazariyasini tatbiq etish o'quvchilarning verbal-lingvistik, mantiqiy-matematik, vizual-fazoviy, motor-harakatli, musiqiy-ritmik, shaxslararo, ichki shaxsiy hamda naturalist (tabiatshunos) kabi intellekt tiplarini rivojlantirishi nuqtai nazaridan ham samaralidir.

Quyida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari "Adabiyot" o'quv dasturi¹⁰da o'rganilishi ko'zda tutilgan taniqli rus yozuvchisi Anton Chexov ijodi, xususan, "G'ilof bandasi" va "Xameleon" asarlari mutoaasi bilan bog'liq faoliyat turlarini Gardner nazariyasi asosida tashkil etishga oid ayrim namunalarni keltiriladi:

1. Verbal-lingvistik intellektni rivojlantirishga oid savol-topshiriqlar. Bunday mazmundagi savol-topshiriqlar mohiyatan o'quvchilarning bog'lanishli nutqini shakllantirish, lug'at zaxirasini boyitish, fikrlarini izchil va tizimli, ilmiy va ijodiy bayon etish ko'nikma-malakasini shakllantirishga qaratiladi. Xususan:

a) "G'ilof bandasi" asari syujetiga doir taqriz yoki annotatsiya tayyorlang. Hikoyadagi kalit so'zlarni aniqlang va ularning kontekstdagi funksiyasini izohlang.

b) hikoya matniga tayanib asar qahramonlariga tavsifnoma yozing.

v) maktab sahnasida "Xameleon" hikoyasini jonlantirishga mo'ljallab ssenariy tuzing.

2. Mantiqiy-matematik intellektni rivojlantirishga oid savol-topshiriqlar. Bunda o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri, voqelikni aniq faktlarga tayanib tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish maqsadini amalga oshirish vazifalari ko'zda tutiladi. Masalan:

a) Chexov, A. Qahhor yoki Said Ahmad hikoyachiligidagi o'xshashlikni solishtirib, fikringizni biror asar misolida asoslang.

b) "Xameleon" hikoyasining kompozitsion markazi, kompozitsion vositalari, asar qismlarining muallif maqsadiga mosligi, obrazlarning yagona tizimga birlashtirilishi hamda tasvirdagi me'yor kabi tamoyillarni aniqlang.

v) hikoya qahramonlari nomlanishida ularning xarakteri va hayot tarzi qay darajada in'ikosini topganligini izohlang.

3. Vizual-fazoviy intellektni rivojlantirishga oid savol-topshiriqlar. Bu turdagi yondashuv biror bir voqea-hodisani kuzatish yoki o'rganish, obrazli fikrlash, badiiy konstruksiyalashga yo'naltirishi nuqtai nazaridan ahamiyatga molik. Jumladan:

a) "Xameleon" hikoyasi ekzpozitsiyasini belgilab rasm chizing.

¹⁰ Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. –T.: www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda, – 45-b.

b) siz Ochumelovning tashqi va ichki dunyosini qanday tasavvur qildingiz? Matnga tayangan holda uning portretini yarating.

v) ensiklopediyalardan buqalamun termini izohi bilan tanishing. Bu jonivor xatti-harakatlari bilan Ochumelov xarakteri o'rtasidagi mushtaraklik modelini yarating.

g) Belikovga nisbat berilgan "Tekinxo'r o'rgimchak" tashbehini chizgilar va ranglarda qanday akslantirar edingiz?

4. Motor-harakatli intellektni rivojlantirishga oid savol-topshiriqlar. Bolalarda bu kabi xususiyatlar boshqalarga taqlid qilish, butunni qismlarga ajratish yoki qismlarni yaxlit holga keltirish, predmetlarni ushlab ko'rish kabi bir qancha harakatlar asosida rivojlantirishiga erishiladi. Masalan:

a) o'zingizni biror asar rejissyori sifatida tasavvur qiling. Personajlar nutqini ifodalash yoki qiyofasini gavdalanitirishda qaysi jihatlarni bo'rttirib ko'rsatar edingiz?

b) Belikov va Kovalenko yoxud Ochumelov bilan Xryukin o'rtasidagi dialoglarni sahnalashtiring.

v) Ochumelov yoki Belikovning mimikalari va odatlariga o'xshash pantomimo uyushtiring.

g) Belikovning asardagi yo'nalishlari xaritasini chizing.

5. Musiqiy-ritmik intellektni rivojlantirishga oid savol-topshiriqlar. Musiqa orqali o'rganishga qaratilgan bu turdagi vazifalar o'quvchidagi sezgi va idrok kabi bilish jarayonlarining rivojiga asoslanadi. Xususan:

a) sizningcha, Belikov bilan vidolashuv marosimida qanday kuy ijro etilgan bo'lishi mumkin?

b) jahon yoki o'zbek xalqi musiqa san'ati fonotekasidan "G'ilof bandasi" hikoyasi qahramonlarining qabristondan qaytishdagi kayfiyatiga mos kuy tanlang.

v) Varenka obrazi nutqidagi ritmni belgilang.

6. Shaxslararo intellektni rivojlantirishga oid savol-topshiriqlar. Bunda o'zaro muloqotga kirishish, jarayonda yetakchilik qilish, shaxsiy qarashlarini asoslash hamda boshqalarning fikrini hisobga olish kabi sifatlar takomili ham e'tiborga olinadi. Jumladan:

a) hayolan Ochumelov bilan suhbatlashing. Unga nimalar degan bo'lar edingiz?

b) Ivan Ivanich va Burkinlardan intervyu olish uchun tayyorlaning. Ularga qanday savollar bilan murojaat qilgan bo'lardingiz?

v) Ivan Ivanichning fikrlariga munosabat bildiring.

g) tengdoshlaringiz orasida olomonning voqealarga nisbatan o'rmi xususida bahs yuring.

7. Ichki shaxsiy intellektni rivojlantirishga oid savol-topshiriqlar. O'quvchilar bunday mazmundagi vazifalarni bajarishlari davomida o'zida mavjud sifatlarini ko'rsata biladi, kamchiliklarini anglash yo'lidan boradi. Ko'rilyotgan muammolar yuzasidan his-tuyg'ularini aniq ifoda etadi, jarayonda o'zini boshqara oladi hamda mavqeyini belgilashga urinadi. Masalan:

a) "Xameleon" hikoyasining asosiy g'oyasi asosida bugungi hayotimizda uchraydigan biror muammo yuzasidan drabl (juda qisqa hikoya) yozing.

b) o'zingizni Ochumelovning o'rniga qo'yib ko'ring. Sizni bunday ish tutishga majbur qilgan omillarni ko'rsating.

v) hayotingizda biror marta bo'lsa ham Ochumelovga o'xshash kimsalar bilan konflikt sodir bo'lganmi?

g) vaziyatga nisbatan qanday chora qo'llagansiz?

8. Tabiatshunos (naturalist) intellektini rivojlantirishga oid savol-topshiriqlar. Bunda o'quvchilarning borliq va uning o'ziga xosligi, tabiat hodisalariga qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi ko'ndalang turadi. Xususan:

a) “G'ilof bandasi” hikoyasi qahramonlari kechinmalari va qishloqning tungi qiyofasidagi bog'liqlikni birlashtiring.

b) “Xameleon” asaridagi bozor maydonida hukmron jimlik sababi ildizlarini aniqlang va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot ta'limida, xususan, mutolaa madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etishda intellektning turli tiplarini rivojlantirishga oid Gardner nazariyasi yosh avlodning shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish hamda global tafakkur rivojiga xizmat qilishi borasida samaradorligini qayd etish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.* –T.: O'zbekiston NMIU, 2017. 469-b.

2. A.A. Umarov *Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli.* Sotsiologiya fan. dok. diss... –T.: 2005.36-b.

3. S. Matchanov *Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish.* Ped. fan. dokt. diss... –T.: 1998. 249-b.

4. E.G'. G'oziyev *Psixologiya.* –T.: O'qituvchi, 2008. 94-b.

5. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* 5 jildli. 2-jild. –T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 216-b.

6. R.X. Niyozmetova *Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganishning nazariy va metodik asoslari (rus guruhlari misolida).* Ped. fan. dokt. diss... –T.: 2007. 43-b.

7. A.O. Umarov *Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. [Monografiya] Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi; A.Qodiriy nom. Toshkent Davlat madaniyat ins-ti.* –T.:Fan, 2004. 15-b.

8. J.G'. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov *Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.* –T.: Fan va texnologiya, 2008.– 80-b.

9. Z. Mirzayeva *Adabiyot fanlarini o'qitishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish. Gardnerning “Turfa zakovatlar” nazariyasi. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.* – T.: ToshDO'TAU – 2018. 11-14-b.

10. *Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori.* – T.: www.lex.uz. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017- yil 14 (774)-son, 230-modda, – 117 b.